O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY KITOB PALATASI

«OBUNA – 2010» davom etmoqda!

TONG YULDUZI

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

2009-yil
30-noyabr
N:48
(66745)

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN – 2010-6092

HUQUQIY TARBIYA – DAVR TALABI

Toshkent viloyati, Quyichirchiq tumanidagi qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi kasb-hunar kollejida yoshlarning huquqiy bilimlarini boyitish borasida ko'plab ibratli ishlar amalga oshirilyapti.

Husanboy AVVALOV olgan surat

FAN OYLIGI YAKUNLANDI

Noyabr oyida respublikamizdagi barcha maktablarda Rus tili fan oyliklari bo'lib o'tdi. Jumladan, poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi 297-maktabda ham mazkur oylik muvaffaqiyatli yakunlandi.

– Oyligimiz ko'ngildagidek o'tdi, – deydi tadbir tashkilotchilaridan biri Matluba Ahmedova. – O'quvchilarimiz unga katta tayyorgarlik ko'rishdi: ko'rgazmalar tayyorlashdi, rasmlar chizishdi, «Rus xalq ertaklari»dan sahnalashtirib, maroqli tomosha ko'rsatishdi. Ayniqsa, «Ochiq darslar» yangi pedtexnologiyalar asosida juda qiziqarli o'tdi. Barno Mannopova, Dilorom Nabiyeva, Minavvar Qo'chqorova kabi ustozlar tadbirda faol ishtirok etdilar. Abdulaziz Abdurasulov, Saidumar Sultonmurodov kabi o'quvchilar esa ustozlariga yaqindan ko'mak berishdi.



«Zukkolarning quvnoq dargohi»
3 - 6 - betlar

SAN'ATIMIZ DURDONALARI

Yurtimiz mustaqillikka erishgan dastlabki yillardanoq, yosh avlodning har tomonlama kamol toptirish va madaniy saviyasini yuksaltirish, yoshlarimizning milliy va jahon musiqalari, tasviriy san'atning yuksak namunalaridan bahramand bo'lishi uchun bolalar musiqa va san'at maktablarini rivojlantirishga katta ahamiyat qaratib kelinmoqda.

Yoshlarni mumtoz musiqa hamda san'atimiz durdonalari bilan tanishtirish, ularga xorij musiqa madaniyatini o'rgatish maqsadida V.Uspenskiy, R.Glier nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa akademik litseylari va 303 ta Bolalar musiqa va san'at maktablarida 5.800 nafar malakali o'qituvchilar, xalq ustalari va bastakorlar astoydil mehnat qilishyapti. Ushbu litsey va maktablardagi 41.000 dan ortiq o'quvchilar fortepyano, skripka, violonchel, zarbli cholg'ular, o'zbek xalq cholg'ulari, rus xalq cholg'ulari, gitara hamda an'anaviy ijrochilik va xonandalik, estrada ijrochiligi yo'nalishlarida bilim olmoqdalar.

Shuningdek, 2009-yil ta'mirdan chiqarilib, foydalanishga topshirilgan 6 ta Bolalar musiqa va san'at maktablarida qo'shimcha tasviriy san'at, teatr san'ati, xoreografiya, yog'och va ganch o'ymakorligi, kompyuter grafikasi va badiiy tikish san'at yo'nalishlari o'quv dasturiga kiritildi. Birgina o'tgan 2008-yil va joriy yilda 34 nafar Bolalar musiqa va san'at maktabi hamda V.Uspenskiy va R.Glier nomidagi litseylarning iqtidorli o'quvchilari nafaqat yurtimiz, balki Fransiya, Ruminiya, Italiya, Germaniya, Portugaliya, Rossiya, Litva, Qozog'iston va Ukraina kabi davlatlarida o'tkazilgan tanlovlarda ishtirok etdilar.

Yurtimiz yoshlari mamlakatimiz tomonidan ularga ko'rsatilayotgan g'amxo'rliklarga o'zlarining bir qator yutuqlari bilan javob qaytarmoqdalar. Bunga 1995-yilda tashkil etilgan «Assalom, yangi avlod!» raqs dastasini misol qilib ko'rsatish mumkun. Ushbu dasta 2000-yilda Germaniyaning Bonn shahrida o'tkazilgan «Odyssey of the mind» bolalar ijodiyot festivalida qatnashib, sertifikat bilan taqdirlangan edi. 2001-yilda Hindiston davlatining Nyu Deli shahrida o'tkazilgan «Balbxavan» bolalar ijodiyot festivalida esa 1-o'rinni qo'lga kiritishdi. Shuningdek, raqs dastasi 2004-yil may oyida Italiyada o'tkazilgan Butun jahon ta'lim festivalida 364 ta guruhlar ichida folklor yo'nalishi bo'yicha faxrli 1-o'rinni egalladi. Joriy yilda esa Italiyaning San-Remo shahrida bo'lib o'tgan «The Festival of Dance for Schools» xalqaro festivalida muvaffaqiyatli ishtirok etib, folklor yo'nalishida 1-o'rinni egallab qaytdilar. Dunyoning 24 nafar mamlakatidan kelgan jamoalar ishtirok etgan mazkur tanlovda yurtimiz sharafini ko'klarga ko'targan «Assalom, yangi avlod!» raqs dastasi milliy raqs san'atimizning yuksak namunalarini namoyish etib, yana bir bor diyorimizda san'atga, milliy qadriyatlarimizga bo'lgan e'tiborni xalqaro miqyosda e'tirof etishdi.

Gulyuz BAHODIR qizi

Internet xabarlari



YONG'IN SABABCHILARI

Yangi Zellandiyada yong'in chiqishiga aksariyat hollarda 21 yoshgacha bo'lgan o'smirlar sabab bo'lmoqda. Ruhshunos Yana Lambining fikriga ko'ra, «o't qo'yuvchilar»ning 75 foizini ota-ona nazoratisiz qolgan bolalar tashkil etmoqda.

31-DEKABRDA HAM MAKTABGA

Chelyabinskda o'tkazilgan karantin natijasida o'quvchilar orasida gripp kasalligi keskin kamaygani aniqlandi. 15-noyabrgacha bo'lgan karantin vaqtida o'quvchilarning darslardan qolib ketgani ota-onalar va o'qituvchilarni jiddiy tashvishga solmoqda. Shu sababli, yillik o'quv rejalari o'zgartirilib, qishki va bahorgi ta'tillar qisqartirildi. Natijada, ayrim maktablarda 30-31-dekabr kunlari ham o'qish kuni deb e'lon qilindi. Shunda bahorgi ta'til ikki kun keyin boshlanib, o'quvchilar qoldirgan darslarini o'zlashtirib olishlari belgilangan.

OSMONDAN TUSHGAN «TO'P»

Kolorado shtatidagi uy tomiga kattaligi futbol to'pidek keladigan muz bo'lagi kelib tushgan. Muz bo'lagi tomni teshib, oshxona devorini zararlagan. Uyda 9 yoshli qizaloq va uning onasi bo'lsa-da, ularning hech biri jarohatlanmagani aniqlandi. AQSH havo yo'llari boshqarmasi xodimlari uchib ketayotgan samolyot katta muz parchasiga urilishi natijasida ushbu hol sodir bo'lganini bayon etishdi. Bu xulosaga tekshirilgan muz bo'lagining toza chiqqanligi isbot bo'la oldi.

TARIXIY TIMSOHLAR

Kanadada Chikago universiteti paleontologi Pol Sereno hamda Mak Gill tomonidan 6 metrli bahaybat timsohlar qo'lga olindi. ZooKeys jurnalining ma'lumotlariga qaraganda, bu timsohlarning qarindoshlari 100 million yil avval Saxara hududida yashagan. O'tkir tishli bu jonivorlar jag'ini ochgan holda suv tubida bir necha soat qimirlamay yotib, baliq tutib yeyishi aniqlandi.

TEST

1. «Ibn Sino», «G'aznaviylar», «Spitamen» kabi tarixiy romanlar muallifi kim?

A) O'.Hoshimov;
B) Mirtemir;
D) U.Nosir;
E) M.Qoriyev.

2. «Qaldirg'ochlar bahorda keladi» hikoyasi qaysi tarixiy voqea bilan bog'liq?

A) 1945-yilgi ikkinchi jahon urushi;
B) 1966-yil tongotar zilzilasi;
D) 1917-yilgi qo'zg'olon;
E) hech qanday voqea bilan bog'liq emas.

3. «Qaldirg'ochlar bahorda keladi» hikoyasida qanday insoniy tuyg'ularni tarbiyalash g'oyasi ilgari surilgan?

A) mehr, oqibat;
B) sadoqat;
D) do'stlik;
E) barcha javoblar to'g'ri.

4. Antuan de Sent-Ekzyuperining «Kichkina shahzoda» ertagidagi asteroidlar nimaning ramzi?

A) jamiyat qonunlarining;
B) o'zga sayyoradagi hayotning;
D) odamlarga xos fazilat va nuqsonlarning;
E) ular ramziy ma'noga ega emas.

5. Antuan de Sent-Ekzyuperining «Kichkina shahzoda» ertagida kichkina shahzoda nima uchun yerni tark etdi?

A) o'z sayyorasini sog'ingani uchun;
B) cho'l sharoitiga ko'nika olmagani uchun;
D) yerda ezgulikni sof holda uchrata olmagani uchun;
E) uchuvchi bilan chiqisha olmadi.

6. «So'zda Navoiy, ne desang chin degil, rost navo nag'mag'a tahsin degil» bayti A.Navoiyning qaysi asaridan olingan?

A) «Hayrat ul-abror»;
B) «Lison ut-tayr»;
D) «Mahbub ul-qulub»;
E) «Farhod va Shirin».

7. Yosh Navoiy necha yoshida she'r yod olgan?

A) to'rt-besh;
B) uch-to'rt;
D) besh-olti;
E) yetti-sakkiz.

8. She'riy asarlarining yarmini ruboiylar tashkil qilgan shoir.

A) Sakkokiy;
B) Atoiy;
D) Navoiy;
E) Bobur.

9. Bobur «Ko'ngli tilagan murodiga yetsa kishi...» deb boshlanuvchi ruboiysini qachon yozgan?

A) Qobulni zabt etgan vaqtda;
B) umrining so'nggi yillarida;
D) Andijondan ketib, tog'-u toshlarda yurganda;
E) Hindistonni zabt etganda.

10. Aruz vazni hazaj bahrining axram va axrab shakllarida yozilgan she'r janri.

A) Ruboiy;
B) G'azal;
D) Tuyuq;
E) Qit'a.



ILM INSONIYLIK TOJDIR, INSONLAR FAQAT U BILAN ULUG'LANADI

Tong yulduzi – 2009

ZUKKOLARNING QUYNOQ DARGOHI

IQTIDORLI BOLALARNING IQTIDORLI USTOZI

Ro'zigul opaning kuyunchakligi-yu betinim yelib-yugurishlaridan bizga ma'lum bo'ldiki, ustoz o'quvchilar qalbidan joy olishi uchun hayotning juda katta imtihonidan o'tishi kerak ekan. Bor bilim va mehrini yosh avlodga berib kelayotgan Ro'zigul opa Mirzayevaning uslubchilik mahorati ommalashtirishga arzigulik desak, xato bo'lmaydi. Iqtidorli bolalarning iqtidorli ustozi o'z oldiga ulug' maqsadlar qo'yganligini hamkasblari quvonch bilan hikoya qilishdi. Zero, yaxshilik urug'ini qalblarga sochish hech qachon yengil kechmagan. Ana shunday mashaqqatli va sharafli yo'lda jonkuyar ustozga kuch-quvvat tilaymiz.

Tong yulduzi
Toshkent – 2009

Ushbu kitobchani tayyorlashda yaqindan yordam bergan-lari uchun Uchtepa tumanidagi 296-maktab rahbariyatiga, ustoz va ota-onalarga o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz.

Axtamqul KARIM,
Yusuf ABDULLAYEV,
Nargiza ABDULLAYEVA,
Oloyuddin ORIPOV

Nashrga tayyorlaganlar:

To'lqin HAYIT,
Feruza JALILOVA,
Feruza ADILOVA,
Ma'mura MADRAHIMOVA,
Axtamqul KARIM,
Yusuf ABDULLAYEV



KONSTITUTSIYA ALIFBOSI

Ana shu mavzuda maktabimizda ochiq dars bo'lib o'tdi. Bunda ustozimiz Sayyora Shokarimova bizga yaqindan yordam berdilar. Ochiq dars bahona biz o'z Qomusimiz haqida yanada ko'proq ma'lumotga ega bo'ldik.

OY SHAHRIM

Sen ko'kdagi to'lin oy shahrim,
Qalbimdagi toshqin soy shahrim.
Rizq ulashgan go'zal non shahrim,
Senga hurmat, senga shon shahrim.
Hur Vatanim, ozod elimsan,
Poytaxtimsan, jon-u dilimsan.

Gavhar NURMATOVA,
o'quvchi

O‘quv qayda bo‘lsa, ulug‘lik bo‘lar,
Bilim qayda bo‘lsa, buyuklik bo‘lar.
Yusuf Xos HOJIB



Uchtepa tumanidagi 296- maktab 1990-yilda o‘z faoliyatini boshlagan. Bugungi kunda mazkur bilim dargohida 1394 nafar o‘quvchi ta’lim-tarbiya oladi. 18 ta boshlang‘ich, 23 ta yuqori sinflar mavjud. Mavluda Qosimova, Ro‘zigul Mirzayeva, Zarifa Xolmatova, Aziza Teshaboyeva, Ra’no Boboqulova, Dilnoza To‘rayeva, Dilbar To‘xtaxo‘jayeva hamda «Yil o‘qituvchisi» tanlovi g‘olibi Sevara O‘rinova kabi mehridaryo, bilimdon, talabchan ustozlar o‘quvchilarning eng yaqin do‘stiga aylanishgan. Bu kabi ustozlarning dars usullari respublika miqyosida ommalashgan.

Shuningdek, jamoamiz «Yilning eng ijodkor jamoasi» yo‘nalishi bo‘yicha sovrinli o‘rinlarni egallashga harakat qilmoqda. Ustozlardan Mahmuda Artiqova, Mirzabek Kazbekov, Mahmuda Fazluddinova, Zuhra Hakimova tomonidan tayyorlangan qiziqarli tadbirlarda o‘quvchilar hamisha faol ishtirok etadilar.

MAKTABIMIZ MUZEYI

Oilamiz murabbiylar sulolasidan. Men ham bu kasbga mehr qo‘yganman. «Geografik o‘lkashunoslik» to‘garagimga tarix, geografiya, me’morchilikka qiziquvchi o‘quvchilarni jalb qilganman. Biz tarixiy yodgorliklarni geografik jihatdan o‘rganamiz. O‘quvchilarim fan olimpiadalarida ishtirok etishadi. «Ekologiya», «Toshkent tarixi bilimdonlari», «Tabiatni asrang» kabi ko‘rik-tanlovlarda munosib o‘rinlarni egallashgan.

Poytaxtimizning 2200 yilligiga to‘yona tarzida maktabimizda muzey tashkil etdik. Arxeologik yodgorliklar, qadimiy topilmalarni izlashda o‘quvchilar doimo harakatda. Eksponatlarni to‘plash barobarida to‘garak a’zolarimiz hatto ilmiy ishni ham boshlab yuborganlar.

Zarifa XOLMATOVA,
geografiya fani o‘qituvchisi

SINFIMIZDA HAMMA A’LOCHI

Men iqtidorli bolalar sinfida o‘qiyman. Ustozimiz Ro‘zigul opa Mirzayeva ota-onalarimiz bilan «Aloqa daftari»ni yo‘lga qo‘yganlar. Unda biz o‘quvchilarning yutuq va kamchiliklarimiz qayd etib boriladi. Ustoz va ota-onamizni xafa qilmaslikka harakat qilamiz. Shuning uchun ham sinfimizda hamma a’lochi.

Dilbaroy PRIMOVA,
2-«A» sinf o‘quvchisi

MASKANIMIZ 20 YOSHDA

Maktabimiz yaqinda 20 yoshga to‘ladi. Bu to‘yga bugungi kunda o‘quv maskanimizda qizg‘in tayyorgarlik ishlari boshlab yuborilgan. Sinflararo devoriy gazetalar tanlovi, ko‘plab tadbirlar, uchrashuvlar uyushtirmoqdamiz.

Bir so‘z bilan aytganda, biz o‘quvchilar o‘zimizning namunali xulqimiz, a’lo o‘qishimiz bilan maktabimiz to‘yiga munosib to‘yona hozirlayapmiz.

E’tibor JO‘RAYEVA, Mohira IBRAGIMOVA, Aziz RAMAZONOV, Odina QODIROVA, Sitora SUBHONOVA,
maktab o‘quvchilari

– MEN «TONG YULDUZI» GAZETASINI SEVIB O‘QIYMAN, – DEYDI 7-«G» SINF O‘QUVCHISI ZUHRA HAKIMOVA.

2-«V» sinf o'quvchilari maktabda o'tkaziladigan tadbirlarga doimo shunday tayyorgarlik ko'rishadi. Maktab sahnasida o'z ijodlari, qo'shiq va she'rlari orqali milliy qadriyatlarimiz va an'analarimizni ulug'lamoqdalar. Ularga bu xayrli ishlarda ustozlari Gulechra Ibragimova yaqindan yordam beradi.





Mehr qarashlarda, mehr ko'zda, saxovat, avvalo, shirin so'zdadir.

Ma'naviy va ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Dilbar opa To'xtaxo'jayevaning o'z kasbiga mehr-muhabbati ehtiromga loyiq.

O'quvchilarimizdagi intilish hissi bizni quvontiradi. Milliy va badiiy kashtachilik bo'yicha respublikada o'tkazilgan ko'rik-tanlovda 6-«B» sinf o'quvchilari Dilrabo Azimova va Gulechra Mutalova birinchi o'rinni oldilar. 7-sinf o'quvchisi Xonzodabegim Fazliddinova «Yangi avlod – 2009» bolalar ijodiyoti festivalining Respublika bosqichida jaol ishtirok etdi. Boks bo'yicha Umid Akbarov respublika musobaqalarining g'olibiga aylandi. 9- sinf o'quvchisi Marina Kim sporting taekvando turi bo'yicha O'zbekiston terma jamoa a'zosi. 9- sinf o'quvchisi Muhammad Musadinov sporting suzish turi bo'yicha Avstriyada bo'lib o'tgan musobaqada qatnashib, g'oliblar safidan joy oldi.

O'quvchilarimizning yutuqlarida albatta maktabimiz o'qituvchilarining xizmati beniholya katta. Ular darsdan bo'sh vaqtlarida ko'plab to'garaklar tashkil etishgan. Ilm to'garaklaridan tashqari, «Yosh o'lkashunoslar», «Zulfiyaxonim qizlari», «Taekvando» kabi to'garaklarimizdagi o'quvchilarimiz soni kundan-kunga o'sib borayotganligi, ularning bo'sh vaqti maktab quchog'ida mazmunli o'tayotganligi kuchimizga kuch, g'ayratimizga g'ayrat qo'shmoqda.

Barno MAHMUDOVA,
296-maktab direktori

MEHNAT QADRINI YO'QOTMAYDI

SAHNADA DEHQON BOBO

Onam, ustoz va biz bir jamoamiz. Bu bizning shiorimiz. Ustozimizni barchamiz yaxshi ko'ramiz. Ularning darslarida aslo zerikmaymiz. Hatto yakshanba kunlarida ham maktabga, opamiz huzuriga borgimiz keladi.

Yaqinda «Hosil bayrami» tadbiri o'tkazildi. Unga ota-onalarimizni ham taklif etishdi. Ular yordamida biz saxovatli oltin kuz bilan diydorlashdik.

Ayniqsa, «Qovundan kemalar karvoni», «Tarvuzdagi ertak qahramonlari», «Vitaminga boy oshqovoqning tabassumi» kabi bir-biridan qiziqarli qo'l mehnati namunalari barchani hayratlantirdi.

Biz esa sahnada dehqonbobo bo'lib, kuz ne'matlarini ustozlarimiz, ota-onalarimiz va mehmonlarga taqdim etdik.

Ibrat JUMADULLAYEV,
Saodat G'AFUROVA,
Muhammad NO'MONOV,
Abdulaziz QOBILJONOV,
2- sinf o'quvchilari



O'qituvchilar darsdan so'ng uyga shoshilmaydilar. Sababi, ertaga ular oldiga bilimga chanqoq, intiluvchan o'quvchilar saboq olishga kelishadi. Ularga albatta biror yangilik topib qo'yish lozim. Bunday ibratli ishlarga maktab rahbarining o'zi bosh-qosh.

XAVOTIRLAR CHEKINGAN

Avvaliga mendan yaxshi muallima chiqarmikan, eplay olarmikanman, degan xavotirim bor edi. Shunda o'zimga: «Eng yaxshi logoped bo'laman», deb so'z berdim.

Tinimsiz izlanishlar ustozlar yordamlari asosida sekin-asta bu kasbning sir-sinoatlarini o'rgana boshladim.

Hozirda «Logoped o'qituvchilari uchun qo'llanma» kitobining muallifiman. Ko'plab shogirdlarim bor. Ular turli savollar, taklif va mulohazalari bilan murojaat qilib turishadi. Shunday paytlarda taqdir menga ustozlik mashaqqatini, shuningdek, rohatini tuhfa etayotganidan mamnun bo'laman.

Mavluda QOSIMOVA,
o'qituvchi

Oygul UBAYDULLO qizi

«TONG YULDUZI»GA

Besh yoshimdan o'rtoqsan,
Ilm qaynar bulogsan.
Sen sababli yulduzim,
Shod o'tadi kunduzim.

Sahifang xo'p chiroyli,
Go'yo quyoshli, oyli.
Dilimga solar surur,
Qalbda uyg'onar g'urur.

Bersam xo'p nasihat,
O'qiyman ko'p-ko'p hikmat.
Goh-gohida nega ayt,
Yozgim kelar she'r-u bayt?

Ham tengdoshim, ham bobom,
Sensan menga do'st, hamdam.
«Tong yulduzi»m, portayver,
Ezgulikka chorlayver.

Akam bilan talashib,
So'ngra yana yarashib.
O'qiymiz so'ng hammamiz –
Oyim, dadam, ammamiz.

Tabriklaymiz, ber ruxsat,
Senga aytamiz rahmat.
Ulug' yoshing muborak!
Qutlug' yoshing muborak!

Risolat IBRAGIMOVA,
6- sinf o'quvchisi

CHIN DO'STGA AYLANISHDI

Risolat Ibragimova 6-sinfda o'qiydi. U a'lo o'qish bilan birga, she'rlar mashq qiladi. Risolatining «Men jig'aman» nomli ilk kitobi chop etilgan.

«Yangi avlod – 2009» bolalar ijodiyoti festivalining tuman, shahar bosqichi g'olibi. Quyida uning ijodidan namuna o'qiysiz.

Qodir bilan Nigina yasagan Qorboboni Anvar keldi-da, buzib tashladi.

Oradan kunlar o'tdi. Anvar qilmishidan rosa pushaymon bo'ldi. Qodir va Niginani xursand qilish maqsadida, qaytadan Qorbobo yasadi. Bolalar Anvarning bu ishidan quvonishdi. Shunday qilib, ular yana chin do'stga aylanishdi. Anvar esa do'stini xafa qilish odobdan emasligini tushunib oldi.

MARJONA DIPLOM OLDI

Maktabda sportchi o'quvchilar talaygina. Ulardan biri Marjona Yaxshiboyeva.

Yaqinda u maktab o'quvchilari o'rtasida o'tkazilgan shashka musobaqasida birinchi o'rinni egalladi.

– G'oliblik qalbimda O'zbekiston chempioni bo'lishdek ezgu niyat uyg'otdi. Ayni kunda mashg'ulotlarni yanada qizg'in davom ettirmoqdaman.



Oliy toifali o'qituvchi Dilnoza opa To'rayeva o'quvchilarning matematika faniga bo'lgan qiziqishlarining ortishga munosib hissa qo'shmoqda. Ustozning uzoq yillik samarali mehnati tufayli maktabda yosh matematiklar safi kengayib bormoqda.

HOSILINI CHOSH AYLAGAN KUZ

Kuz fasli. Zarhal bog'larning sochayotgan xazonlarini ko'rib, sog'inch qalbimizni bir zum larzaga soldi. Xazonzorlarga tikilib, hayotning sir-sinoatlarini payqagandek bo'lamiz. Kechagina gullab yashnagan bog'lar u kun mevasini chosh aylab, bugun yaproqlarini sochib, bo'm-bo'sh kaftlarini osmonga ochib turgani g'alati emasmi?! Sinov dunyo. O'ylayverib, o'ylarimizning oxiriga yetmaymiz.

Kuz kunlarining so'nggida maktabda «Hosil bayrami» bo'lib o'tdi. Quvnoq va zukko bolajonlarimizning mevalar tilidan monolog o'qib, kuzning behisob noz-u ne'matlarini sahnaga ko'tarib chiqishlarini ko'rib, beixtiyor bog'larimiz quchog'iga oshiqib borgimiz keldi. Dunyoning barcha noz-u ne'matlarini bizga in'om etgan ona zaminimizning saxovatiga qoyil qolmay, ilojimiz yo'q.

Demak, kuz bilan xayrlashuv onlari yaqin.

Kitobni to‘g‘ri tanlash kitob o‘qishning muhim qoidasidir



Rustam NAZAR – 1949-yil 8-sentabrda Xorazm viloyati, Hasorasp tumanidagi Otaliq qishlog‘ida tug‘ilgan. Respublika rus tili va adabiyot institutida tahsil olgan.

Bolalar shoiri Rustam Nazarning «Yashasin quyoshli kun» (1987-y.), «Rangli favvora» (1991-y.), «Mo‘jiza» (1993-y.) nomli kitoblari chop etilgan. Hozirda «Hazoraspnoma» gazetasida faoliyat yuritmoqda. O‘zbekiston yozuvchilar va jurnalistlar uyushmasining a’zosi.

Oltmish yoshni qarshilagan qadrli ijodkorimizni gazetamizning ko‘p sonli muxlislari nomidan qutlaymiz.

Tahririyatdan

HAYOT

Hayot –ajib bir maktab,
Unda hamma o‘quvchi,
Bo‘lsin davlat arbobi,
Bo‘lsin oddiy to‘quvchi.

Tirikchilik fanini .
O‘rganadi har bir jon.
Istisno yo‘q – barchaga
Majburiydir imtihon.

Topolmaysan bahona,
Berolmaysan hech firib,
Javobni ham birovdan
Ololmaysan ko‘chirib.

Imtihonlar og‘ir-u,
Xolis erur baholar.
O‘tolmaydi sinovdan
Ba’zan hatto daholar.

Hayot – ajib bir maktab,
Kimdir xafa, kimdir shod.
...Noshudlar bir sinfda
O‘qir qolib umrbod!?

CHIG‘ANOQ

Unga quloq tutsangiz
Xuddi dengiz shovullar.
Shunda ajib bir hisdan
Yuzlaringiz lovullar:

«Ardoqlaydi chig‘anoq
Dengiz –aziz ma’vosin.
Charchamas hech, bezmas hech
Kuylashdan yurt navosin».

Odamlar-chi? Ba’zilar
Subutsiz va ayyordir.
Gaplarida yurt uchun
O‘limga ham tayyordir.

Lekin quloq tutsangiz
Qalblariga mabodo,
Eshitilar baralla
Ko‘p g‘alati bir sado.

Uy-joy, ro‘zg‘or g‘amida
So‘nar dillar hovuri –
Ichlarida guvillar
Bozor g‘ala-g‘ovuri!



TARBIYA

Mening otam ajoyib,
Tarbiyasi qiziqdir.
Har tarafim chegara,
Har tarafim chiziqdir.

Bundan xafa emasman,
Qilar aql-u hushim jam.
Ular borki, maqsaddan
Chalg‘imayman sira ham.

Otam belgi qo‘yishni
Yetganmikin faromush –
Uchrar ochiq manzillar,
To‘xtarman jim va xomush.

Hayotning xil yukini
Men yelkamga ortarman.
Chegara yo‘q yo‘limga,
O‘zim chiziq tortarman!

Rustam NAZAR

OQ YO‘L

Dilbar to‘g‘risida hech tasavvurim yo‘q edi, she’r yozishini ham bilmasdim. Buxoroga bir borganimda, uning she’rlari bilan tanishdim, ular menda iliq taassurot qoldirdi. Ko‘nglimda o‘quvchilar ham tanishsin, degan fikr uyg‘ondi.

Bu yil o‘n beshga kirgan Dilbar uchun hali butun hayot oldinda. Ba’zi havaskorlardek o‘qish-o‘rganishga erinib, tezroq nom qozonish, kitob chiqarishga shoshmasa, ijod yo‘li mashaqqatli yo‘l ekanligini unutmasa, u bir kuni yaxshi shoira bo‘lishini umid qilish mumkin.

Omon MUXTOR,
O‘zbekiston respublikasi san’at arbobi,
Davlat mukofoti laureati

NAVOIY

Navoiy suratin bir bora ko‘rki,
Unda kamtarligu mag‘rurlik ko‘rki.
Uning siyratiga kerak ko‘z tikmak,
Unda donolik bor, unda bor hikmat.

* * *

Yuraklarda muhabbat hissi,
Yosh-u keksa kayfiyati xush.
Ko‘chalarda rayhonning isi,
Bu men uchun go‘yoki bir tush.

TAFOVUT

Derazam ortida yog‘adi yomg‘ir,
To‘rlar orasida o‘zga manzara,
Ko‘chadan junjikib o‘tar odamlar,
Uyda onam esa mehr-la kular.
Bunda tasvirlandi tafovut,
Ko‘cha hamda uy o‘rtasida.
Ularni ajratar derazam,
Ikki hayot ikki qasida,
Sir tutmoq ham go‘zal bir san’at...

FAXR

O‘zbek ko‘chasidan o‘tsang har qachon,
Uchrar mehmondo‘stlik, kelar non hidi.
Ko‘rsatar yozilgan hatto dasturxon –
Qanchalik yuksakdir o‘zbekning didi.

Xalqim, sen nafasim va yorug‘ yuzim,
G‘ururim, sururim, yozmagan so‘zim.

* * *

Osmonda kabutar uchmoqda sokin,
Atrof bog‘lardagi qushlar ham sayroq.
Men ko‘zimga surtib bobolar hokin,
Ona yerimizga tikaman bayroq.

Bu – yashash ne’mati qandayin buyuk,
Ne-ne o‘g‘lonlarning qaddini bukkan.
Bu hayot biz uchun naqadar suyuk,
Ma’sum onajonlar ko‘z yoshin to‘kkan.

Dilbar HAYDAROVA

«KITOB DUNYOSI»DA YANGILIKLAR BOR

Aziz bolalar! Olimlar so‘nggi ikki ming yillikda qilingan ixtirolar orasidan «Eng buyugi» deb nemis olimi Iogann Guttenberg tomonidan ixtiro qilingan kitob bosish uskunasini e’tirof etdilar. Bu bejiz emas albatta. Zotan, kitob insoniyat erishayotgan ilmiy, ma’naviy yutuqlarning asosidir.

Kitob insonning eng yaxshi do‘sti, yaqin ustozidir. U bizga hayotdan saboq beradi. Farzandlarimizni tarbiyalaydi. Ilm-fandan boxabar qiladi. Sabr-toqat, baxt va omad sari olg‘a boshlaydi. Zero, bobokalonimiz Amir Temur aytganlaridek, kitob barcha bunyodkorlik, yaratuvchanlik va aql-idrokning, ilm-u donishning asosi, hayotni o‘rgatuvchi murabbiydir.

Markaziy Osiyo xalqlari kitobni qadim-qadimdan qadrlaganlar. Ushbu hududdagi dastlabki kutubxona milodning uchinchi asrida Xorazmda paydo bo‘lgan. Tarixiy dalillarga asoslanadigan bo‘lsak, milodning 650-yillaridayoq Samarqandda qog‘ozli kitoblar bo‘lgan. Ko‘rinib turibdiki, kitob ko‘hna zaminimiz uchun u qadar yangilik emas. Aksincha, Turon kitob va kitobat san’ati rivoj topgan o‘lkadir. Bugungi kunda ham yurtimizda yuzdan ortiq nashriyot, matbaachilik korxonalari hamda poligraf tashkilotlar faoliyat yuritmoqda. Har yili mingdan ziyod kitoblar nashrdan chiqmoqda.

Kitobni to‘g‘ri tanlash kitob o‘qishning muhim qoidasidir. Xo‘sh, kitob bozorlaridagi kitoblar bizga qanchalik foydali? Ulardan qanday ma’naviy ozuqa olish mumkin? Bu savollarga javobni «Kitob dunyosi» nashridan olasiz. Gazeta sahifalarida nafaqat yurtimiz, balki xalqaro kitob bozoridagi ommabop kitoblar haqida ham ma’lumotlar berib boriladi. Kitob va kitobning ahamiyatiga bag‘ishlangan tahliliy maqolalar, qiziqarli ma’lumotlarni o‘qish imkoniyatining borligi gazeta ommabopligining garovidir.

«Kitob dunyosi» gazetasi yurtimizdagi yetakchi nashriyotlarda chop etilayotgan eng sara kitoblar haqida ma’lumot beruvchi yagona gazetadir. «Kitob dunyosi»ga obuna bo‘lishni va oilangiz kutubxonasi uchun munosib kitoblardan boxabar bo‘lishni unutmang.

Nilufar JUMAYEVA,
«Kitob dunyosi» gazetasi Bosh muharriri

Tropik bambuk bir kunda yarim metr o‘sadi

KENJA TUMAN BOLALARI

Poytaxtimizning Bektemir tumanidagi 293-maktabda «Tong yulduzi», «G‘uncha», «Boshlang‘ich ta’lim» tahririyatlari xodimlari bilan ijodiy muloqot bo‘lib o‘tdi.

Tadbirda bolalar shoirlari Tursunboy Adashboyev, Abdurahmon Akbar hamda Dilshod Rajabov ishtirok etib, ijod namunalaridan parchalar o‘qidilar.

Shu kuni Konstitutsiya bayramiga bag‘ishlab o‘tkazilgan rang-tasvir asarlari ko‘rik-tanlovi g‘oliblari ham aniqlanib, Diplom va esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandilar.

Maktabning 4-«A» sinf o‘quvchisi D.Sayfuddinova «O‘lkamda bahor», sinfdoshi Sevara Ubaydullayeva esa «Tulki bilan ko‘zacha», 4-«B» sinf o‘quvchisi Sitora Usmonova «Humo qushi» nomli rasmlari bilan g‘olib bo‘lishdi.

Yusuf ABDULLAYEV

SKANVORD

							1			Uzunlik birligi				
	Osiyodagi davlat		Ishchanlik		Musiqa asbobi		Yaponiya firmasi					Maktub	Targ‘ibot vositasi	
							Fizik zarra		Pul birligi	Fursat		Ingliz adibi	Tikish ashyosi	
	Pilla qurti tolasi		Garov							Sport buyumlari firmasi				2
				Axborot		O‘kinch	Guruh					Raqsdagi harakat		
3	Shohlik jihozi					Davr o‘lchovi						Hu-zur	Belgi	
Tafakkur ilmi		Nota			Urf, an’ana				Milliy ipak mato					
				4		Iqish, ro‘zg‘or buyumi (sheva)		Kemiruvchi hayvon					Uzoq sharq daryosi	Samolyot
Qoritilgan non		Go‘zallik								Hamisha				
						Bayram oldi		O		Avto qism				
Yetuklik				Ro‘zg‘or buyumi		M	Qizil sayyora				5	Musiqa yozuvi		O‘zbek shoiri
	Armon		Sog‘-salomat	Bolgariyalik bashoratchi		Adabiy janr						A	Bino qismi	
	Kuchli bo‘ron						D		Musiqiy ovoz turi					
	Lavozim					Sport	Rid ... (adib)		Yaqin kishi				Olmosh	
			6		Xushbo‘y gul		Ustoz suhbati jon ozig‘idir Sa’diy Sheroziy				Tabiiy fan sohasi		7	
	Samo										G‘aniyev (aktyor)		Bino	
... yigit			O‘rta asr tarixchisi		Millat							Viloyat markazi		
	Kalit so‘z					7	5	1	7	3	4	6	2	

Foziljon ORIPOV tuzdi

Bu ajib dunyo

ENG YENGIL AVTOMOBIL



Og‘irligi 100 kiloga bormaydigan avtomobillar ham bo‘lar ekan. Angliyada eng yengil avtomobil yaratilgan. U atigi 95 kilogrammlik tosh bosadi, xolos. Dvigatelining hajmi 2,5 santimetrni tashkil etgani holda soatiga 25 kilometr tezlikda yura oladi.

FIL EMAS, XARTUMLI



Xartum faqatgina fillarda bo‘lmas ekan. Xartumli suv kalamushi haqida eshitganmisiz?

Suv kalamushi atigi 20 sm. uzunlikka teng bo‘lgan kichik jonivordir. U asosan suvda yashaydi, biroq uyasini qirg‘oqlarda quradi. Shuningdek, uyaga kirish yo‘li doimo suv ostida bo‘ladi. Suv kalamushi harakatlanuvchi cho‘ziq burni – xartumi bilan yemish izlaydi. Jonivor xartumi bilan balchiqlardan hasharot va ularning lichinkalarini topadi.

ENG TEZ O‘SUVCHI DARAXT

Bambuk yerdagi eng tez o‘suvchi daraxtdir. Bir necha oy ichida u 30 metrgacha – 8 qavatli uyga teng keladigan balandlikkacha o‘sishi mumkin. Tropik bambuk bir kunda yarim metr o‘sadi. Shunisi diqqatga sazovorki, bambuk boshqa ko‘pgina daraxtlar kabi faqat bahorda emas, butun yil davomida o‘sishdan to‘xtamaydi.

ENG QISQA DARYO

Eng qisqa daryo haqida eshitganmisiz? Uning uzunligi bor yo‘g‘i 17,7 metrni tashkil etadi. Qayerda ekan, deysizmi? AQSHning Montana shtatidagi Greyt-Fols degan joydan oqib o‘tuvchi va Missuri daryosiga quyuluvchi Rou River daryosining bir irmog‘ining uzunligi shuncha kelar ekan.

Muassislar:
O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG‘LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo‘lmagan Xalqaro xayriya jamg‘armasi.

BOSH MUHARRIR:
To‘lqin HAYITOV

Dizaynerlar:
Fazliddin SHOYODGOROV,
Olovuddin ORIPOV
Navbatchilar:
Ma’mura MADRAHIMOVA,
Yusuf ABDULLAYEV

Gazeta O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro‘yxatdan o‘tgan.

TAHRIR HAY’ATI:
G‘ayrat SHOUMAROV,
Svetlana INOMOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Odina JAMOLDINOVA,
Jabbor RAZZOQOV,
Murtazo SULTONOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o‘rinbosari),
Feruza ADILOVA
(mas’ul kotib),
Dilmurod RAHMATILLAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA

Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Navoiy ko‘chasi, 30-uy.
Indeks: 700129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@mail.ru
Tel: 244-27-25, 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O‘zbekiston»
nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
Haftaning dushanba kuni chiqadi.
Shakli A-3,
2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi -26991
Buyurtma N: J 8489